

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-mart oylarida Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinnarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 48 884,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 10,5 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 115,4 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent shahrning qo'shgan hissasi 20,1 % ga yetdi.

### 2024- yilning yanvar-mart oylarida Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



110,5 %

48 884,3 mlrd. so'm



115,4 %

20,1 %



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi

## 2024- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o’sish sur’atlari

	Mlrd. so‘m		O’sish sur’atlari, o’tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023- yil	2024- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>38 347,7</b>	<b>48 884,3</b>	<b>110,5</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	34 032,7	43 931,9	110,5
mahsulotlarga sof soliqlar	4 315,0	4 952,4	110,5
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati</b>	<b>34 032,7</b>	<b>43 931,9</b>	<b>110,5</b>
<b>sanoat (qurilishni qo‘shtigan holda)</b>	<b>12 750,8</b>	<b>16 600,3</b>	<b>109,0</b>
sanoat	9 873,8	13 361,6	109,1
qurilish	2 877,0	3 238,7	108,4
<b>xizmatlar</b>	<b>21 281,9</b>	<b>27 331,6</b>	<b>111,4</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	5 628,4	6 879,1	110,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5 137,6	6 810,9	119,3
boshqa xizmat tarmoqlari	10 515,9	13 641,6	108,2



Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 16 029,7 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 7,5 % ga yuqoridir.

**2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga  
hisoblangan YAHM hajmi  
(ming so‘mda)**



**2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga  
hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari  
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)**



**Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
YAHM tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)**

	<b>2023- yil</b>	<b>2024- yil</b>
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	88,7	89,9
mahsulotlarga sof soliqlar	11,3	10,1
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>37,5</b>	<b>37,8</b>
sanoat	29,0	30,4
qurilish	8,5	7,4
<b>xizmatlar</b>	<b>62,5</b>	<b>62,2</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	16,5	15,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	15,1	15,5
boshqa xizmat tarmoqlari	30,9	31,0



2024- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiyligi YAHMning 89,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 10,1%ini tashkil etdi.


Hisobot davrida sanoat tarmog'ining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 30,4 % ni, qurilish 7,4 % ni va xizmatlar sohasi 62,2% ni tashkil qildi.

### Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (*jamiga nisbatan % da*)

2023- yil



2024- yil



● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga sanoat tarmog'i – 2,4 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,8 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,6 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – salbiy 0,3 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 6,3 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 6,1 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 1,2 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,9 f.p.)ga ko'paydi.


### 2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)

#### YAHM



10,5 %

#### Qurilish



0,6 %

#### Mahsulotlarga sof soliqlar



1,2 %

#### Sanoat



2,4 %

#### Xizmatlar



6,3 %

2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiliy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari sanoatda – 109,1% (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 30,4 %), qurilishda – 108,4% (7,4 %), xizmatlar sohasida – 111,4 % ni (62,2 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,0 % (15,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 119,3 % (15,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 108,2 % dan (31,0 %) iborat bo'ldi.

**Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**

2023- y.

2024- y.



7,5 %

YAHM

10,5 %



3,2 %

Sanoat

9,1 %



-3,6 %

Qurilish

8,4 %



11,2 %

Xizmatlar


11,4 %

2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 115,4 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'satkichlari sanoatda – 124,0 % va xizmatlarda – 115,3 % qayd etildi.

**Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**

2023- y.

2024- y.



2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 21 838,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 18 161,9 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 49,7% ni (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 53,4 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bogʻliq.

### Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da



2023- yil

18 161,9

53,4 %

2024- yil

21 838,7

49,7 %

